
O'zbekiston – umumiy uyimiz: Do'stlik va birodarlik festivali

Diyorimizda istiqomat qilayotgan millat va elatlar o'rtasidagi totuvlik ezgu umumbashariy qadriyatga aylangan. Davlatimizda bu qadriyat rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarida biri bo'lib, do'stlik va birodarlikning bardavom bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Oltiariq tumani Jonibek mahalla fuqarolar yig'inidagi 24-umumta'lim maktabida "O'zbekiston – umumiy uyimiz" shiori ostida bo'lib o'tgan tadbir an'analarni yanada mustahkamlashga qaratilganligi bilan o'ziga xos o'rin tutdi.

Mahalla fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qilayotgan qirg'iz millatining urf-odatlari va an'alarini o'zida mujassam etgan ko'rgazma namoyishi ishtirokchilarga unutilmas taassurotlarni hadya etdi. Qo'llarida gul tutgan, qirg'iz milliy libosidagi yigit va qizlarning tabassumi, konsert dasturidagi chiqishlari barchani ilhomlantirdi.

- O'zbekiston mening yurtim, - deydi 67 yoshli Soliyaxon Sobirova. - 5 nafar farzandimni voyaga yetkazib, 13 nevara, 4 nafar chevarali bo'ldim. Do'stlik rishtalarining yanada mustahkamlayotganligi quvonarli.

Tadbirda viloyatdagi 7 ta milliy madaniy markaz rahbarlari va ansambllari o'z chiqishlari bilan bayramga yanada fayz kiritdilar. Koreys, tatar, nemis, tojik, o'zbek tillarida yangragan kuy-qo'shiqlar barchani ahilinoqlikka, shu aziz Vatanda hamjihatlikda hayot kechirishga undadi.

Maktab o'quvchilarining chiqishlari, raqslari gulduros qarsaklar bilan kutib olindi. Qirg'iz milliy madaniy markazining "Suluv qiz" ansambli tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar barchani raqsga chorladi.

- 24-umumta'lim maktabida 236 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ular o'rtasida do'stu birodarlikni yanada mustahkamlash maqsadida "Biz O'zbekiston farzandlarimiz", "O'zbekiston kelajagimiz" mavzularida tadbirlar o'tkazilib kelinadi. Qirg'iz va o'zbek an'alarining bolalar tarbiyasidagi o'rniga oid tanlovlar, ko'rgazmalar muntazam tashkil etilmoqda, - deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Xavasxon Hakimova.

Tadbirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Qilichbek Tojiev diltortar navolari bilan ishtirokchilarga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Rishton tumanidagi Navbahor, Yoyilma, Oqtomir mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari ishtirokida 24-umumta'lim maktabida ham shu mazmundagi tadbir bo'lib o'tdi.

Ayni vaqtda Navbahorda o'zbek, qirg'iz, tatar, tojik, Yoyilmada o'zbek va tojik, Oqtomirda o'zbek va qirg'iz xalqlari do'stu-birodar bo'lib umrguzaronlik qilmoqda. Bu xususiyatlar o'tkazilgan tadbirda ham o'z aksini topdi. Har bir millat vakilining milliy libosda tashrif buyurib, urf-odatlarini o'ziga xos tarzda aks ettirganini yig'ilganlar katta qiziqish bilan kuzatdilar. Tadbirda yangragan taronalarda ham Vatan va do'stlik, mehr-oqibat tuyg'ulari tarannum etildi.

- Mahallamizda 4280 nafar aholi istiqomat qiladi. Ularni bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki to'y-marosimlarimiz, an'alarimiz uyg'un, - deydi Yoyilma mahalla fuqarolar yig'ini raisi Alisher Safarov.
- Millatlararo totuvlikka yurtimizda alohida e'tibor qaratilayotgani, tinchligimiz yanada mustahkamlanayotgani har bir millat vakilini faxrlantiradi.

O'tkazilgan tadbirda viloyatdagi milliy-madaniy markazlarning badiiy dasturlari namoyish etildi.

Kamola POLVONOVA,

Madaminjon SOLIJONOV,

"Farg'ona haqiqati"ning maxsus muloqotlari.

Sherzod QORABOEV olgan surat.

